



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA "AKT XIZMATLARI"	
TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR	
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich	
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN	
LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY Tajribalar tahlili va uni O'zbekiston	
SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne'matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek	
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ	
ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна	
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	
ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	
ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли	
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING	
USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS	
XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR	
XORIJIY Tajribalari	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov	
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING	
HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)	
ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI	
HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI	
QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI	
BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSİYALAR KESIMIDA)	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQLASHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	



O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI



Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
E-mail: m.azlarova@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-4123-8464

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston qandolat mahsulotlari bozorining shakllanish bosqichlari va zamonaviy rivojlanish tamoyillari tadqiq etilgan. Ishda ishlab chiqarish dinamikasi, bozor tarkibi hamda iste'mol talabiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Regression tahlil usuli orqali tarmoq hajmining aholi daromadlari bilan o'zaro bog'liqligi isbotlangan. Shuningdek, ichki bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va import mahsulotlari o'rtasidagi raqobat muhiti o'rganilib, milliy oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qandolat mahsulotlari bozori, oziq-ovqat sanoati, bozor shakllanishi, ishlab chiqarish dinamikasi, raqobat muhiti, iste'mol talabi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, import mahsulotlari, iqtisodiy-statistik tahlil, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация. В данной статье исследованы этапы формирования и современные тенденции развития рынка кондитерских изделий Узбекистана. На основе статистических данных проанализированы экономические факторы, влияющие на динамику производства, структуру рынка и потребительский спрос. С помощью метода регрессионного анализа доказана взаимосвязь объема рынка с доходами населения. Также изучена конкурентная среда на внутреннем рынке между местными производителями и импортной продукцией, разработаны практические предложения по повышению конкурентоспособности национальной пищевой промышленности.

Ключевые слова: рынок кондитерских изделий, пищевая промышленность, формирование рынка, динамика производства, конкурентная среда, потребительский спрос, местные производители, импортная продукция, экономико-статистический анализ, экономика Узбекистана.

Abstract. This article examines the stages of formation and current development trends of Uzbekistan's confectionery market. The study analyzes economic factors affecting production dynamics, market structure, and consumer demand based on statistical data. Regression analysis proved the correlation between market size and population income. The competitive environment between domestic producers and imported products in the domestic market was also examined, and practical recommendations were developed to enhance the competitiveness of the national food industry.

Keywords: confectionery market, food industry, market formation, production dynamics, competitive environment, consumer demand, local producers, imported products, economic and statistical analysis, economy of Uzbekistan.

KIRISH

So'nggi yillarda global oziq-ovqat sanoati jadal rivojlanib, qandolat mahsulotlari bozori iste'mol bozorining eng dinamik segmentlaridan biriga aylandi. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda jahon qandolat mahsulotlari bozori hajmi 230 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, 2030-yilga borib ushbu ko'rsatkich 300 milliard AQSh dollaridan ortishi prognoz qilinmoqda [4]. Shuningdek, global miqyosda qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi urbanizatsiya jarayonlari, aholi daromadlarining ko'payishi hamda zamonaviy chakana savdo tarmoqlarining kengayishi bilan izohlanadi. Tahlillarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda qandolat mahsulotlari iste'moli yiliga o'rtacha 5–7 foiz sur'atlarda o'sib bormoqda [5]. Mazkur ko'rsatkichlar qandolat sanoati oziq-ovqat sanoatining muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.



Jahon oziq-ovqat sanoatidagi transformatsiya jarayonlari ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, mahsulot assortimentini kengaytirish hamda logistika tizimlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro oziq-ovqat tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, global oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi 2050-yilgacha kamida 60 foizga oshishi kutilmoqda. Bu esa oziq-ovqat sanoatida samarali boshqaruv va ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishni talab etadi [5]. Shu nuqtai nazardan, qandolat mahsulotlari bozori nafaqat iste'mol talabini qondirish, balki sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ham oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan [1]. Mazkur hujjatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy brendlarni rivojlantirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston–2030 strategiyasida ham sanoatni diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan [2]. Ushbu strategiyada 2030-yilgacha oziq-ovqat sanoatining qo'shilgan qiymatini sezilarli darajada oshirish, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash darajasini kengaytirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish bo'yicha muhim maqsadlar belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatda kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash hamda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish orqali sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish vazifalari ham belgilab berilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda [3]. Ichki iste'mol bozorining kengayishi, chakana savdo infratuzilmasining rivojlanishi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning investitsion faolligi ushbu bozorning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, import mahsulotlari bilan raqobatning kuchayishi hamda iste'molchilarning sifat va assortimentga bo'lgan talabining ortishi bozorni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Biroq, ilmiy adabiyotlarda qandolat mahsulotlari bozori ko'pincha oziq-ovqat sanoatining umumiy rivojlanishi doirasida ko'rib chiqilib, uning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari alohida ilmiy jihatdan yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida qandolat mahsulotlari bozorining tarkibiy tuzilmasi, raqobat muhiti hamda rivojlanish omillarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli emas.

Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozorining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, uning iqtisodiy rivojlanish omillarini aniqlash hamda bozorni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot natijalari qandolat mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakat oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qandolat mahsulotlari bozori va uning rivojlanish omillari so'nggi yillarda xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda ushbu bozorning rivojlanishi, asosan, iste'mol talabi, raqobat muhiti, marketing strategiyalari, brend sodiqligi hamda ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Ryzhakova jahon qandolat mahsulotlari bozorini tadqiq etib, ushbu segmentning rivojlanishida hududiy talab, xalqaro savdo oqimlari va mahsulot assortimentining kengayishi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Muallif, ayniqsa, Europe qandolat bozori dinamikasini tahlil qilib, raqobatning kuchayishi ishlab chiqaruvchilarni sifat, narx va innovatsion mahsulot siyosati bo'yicha faolroq strategiyalar ishlab chiqishga undashini qayd etadi [6].

Lapitskaya qandolat mahsulotlari raqobatbardoshligini baholashga bag'ishlangan tadqiqotida globalizatsiya va ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanishi qandolat sanoatida ustunlikni belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini asoslaydi. Muallifning fikricha, mahsulot sifati, iste'molchi talabi hamda bozor sharoitlariga tez moslashish qandolat korxonalarining bozordagi barqaror pozitsiyasini ta'minlaydi [7].

Rivojlanayotgan bozor sharoitida an'anaviy qandolat mahsulotlariga bo'lgan brend sodiqligini o'rgangan tadqiqotchilar esa bozor rivojlanishida nafaqat narx va sifat, balki brend qadriyati, brend imiji hamda iste'molchi bilan emotsional bog'liqlik ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv qandolat bozori rivojlanishida marketing va iste'molchi xulq-atvori omillari tobora kuchayib borayotganini anglatadi [8].

Mahalliy tadqiqotlarda ham qandolat mahsulotlari bozori alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Jumladan, Djahangirova Uzbekistan qandolat mahsulotlari bozori hozirgi bosqichda to'yinuv davriga yaqinlashayotganini



qayd etadi hamda ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari va istiqbollarini tahlil qiladi. Muallif yondashuvida bozorning keyingi rivoji ishlab chiqarish quvvatlari, ichki talab va raqobat muhitining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq ekani ko'rsatiladi [9].

O'zbekiston oziq-ovqat bozori rivojlanishini statistik tahlil qilgan tadqiqotlarda esa qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishi uzoq muddatli o'sish tendensiyasiga ega ekani ko'rsatiladi. Xususan, 2018-yilda 2000-yilga nisbatan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,9 baravar oshgani qayd etilgan. Bu holat qandolat mahsulotlari bozorining umumiy oziq-ovqat sanoati tarkibida barqaror rivojlanayotgan segmentlardan biri ekanini tasdiqlaydi [10].

Shuningdek, O'zbekistondagi qandolat sanoati bo'yicha ayrim manbalarda mamlakatda yuzdan ortiq korxona faoliyat yuritishi, ichki talab va mahalliy ishlab chiqarish o'rtasida muayyan tafovut mavjudligi hamda bozorning ma'lum qismi import hisobiga to'ldirilishi qayd etilgan. Bu esa qandolat bozori shakllanishida mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, assortimentni kengaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarda qandolat mahsulotlari bozori rivojlanishining alohida jihatlari — raqobat, marketing, ishlab chiqarish va iste'mol omillari — yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida aynan ushbu bozorning shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganuvchi tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozorining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish maqsadida birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumotlar manbalari uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida asosan ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanilib, ular O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati bo'yicha rasmiy hisobotlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar hamda ilmiy manbalarda e'lon qilingan ma'lumotlar asosida shakllantirildi. Bundan tashqari, qandolat sanoati faoliyati bilan bog'liq ilmiy maqolalar, tahliliy materiallar va iqtisodiy hisobotlar ham o'rganildi.

Tadqiqot davomida qandolat mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalari, ishlab chiqarish hajmi, iste'mol darajasi hamda bozor tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning ishonchliligi turli manbalar asosida taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida tekshirildi.

Tahlil jarayonida ilmiy bilishning bir qator metodlaridan foydalanildi. Jumladan, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash usuli, deskriptiv statistika hamda tizimli yondashuv qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida qandolat mahsulotlari bozorining shakllanish bosqichlari, uning rivojlanish dinamikasi hamda bozor rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Shuningdek, tahlil natijalari asosida mazkur bozorning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozori so'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatining eng faol rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. Bozorning shakllanishi, asosan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatining kengayishi, iste'mol talabining ortishi hamda savdo infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keyingi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Respublika miqyosida qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (ming tonna)¹

Yillar	Ishlab chiqarish hajmi (ming tonna)	O'sish sur'ati (%)
2019-yil	124,8	—
2020-yil	129,7	3,9
2021-yil	130,2	0,4
2022-yil	144,4	10,9
2023-yil	156,8	8,6
2024-yil	165,4	5,5


¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Bu holat ichki iste'mol bozorining kengayib borayotganini hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish salohiyati ortayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021–2023-yillarda bozor o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lgan.

Mazkur davrda ishlab chiqarish hajmining sezilarli oshishi aholining real daromadlari o'sishi, zamonaviy savdo tarmoqlarining kengayishi hamda ishlab chiqarish korxonalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, davlat tomonidan oziq-ovqat sanoatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham mazkur jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.


Qandolat mahsulotlari bozorida raqobat muhiti, asosan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va import mahsulotlari o'rtasida shakllanadi. Bozor ulushi bo'yicha asosiy raqobat tuzilmasi quyidagi gistogrammada aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozori raqobat tuzilmasi²

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bozorda yetakchi ulushni mahalliy ishlab chiqaruvchilar egallaydi. Import mahsulotlari, asosan, premium segmentda raqobatni shakllantiradi. Kichik ishlab chiqaruvchilar esa hududiy bozorlarda faoliyat yuritadi.

Bozor rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillarni aniqlash maqsadida qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik Stata dasturi yordamida tahlil qilindi. Natijada quyidagi regressiya modeli olindi (2-rasm).



2-rasm. Aholi daromadlari va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtasidagi regressiya bog'liqligi³

² Tahlillar asosida muallif ishlanmasi.

³ Stata tahlili asosida muallif ishlanmasi.



Natijalar shuni ko'rsatadiki, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi daromadlari va urbanizatsiya darajasi bilan ijobiy bog'liqlikka ega. Ayniqsa, aholi daromadlarining o'sishi qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshiradi. Bu esa qandolat sanoati rivojlanishining muhim iqtisodiy omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tahlillar O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozori barqaror o'sish bosqichida ekanligini, raqobat muhiti esa, asosan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar ustunligi asosida shakllanayotganini ko'rsatdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozori so'nggi yillarda barqaror rivojlanish bosqichiga kirganligini tasdiqladi. Tahlil natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga oshib borishi mamlakatda oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ichki iste'mol bozorining kengayishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, qandolat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi aholi daromadlarining o'sishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Bozor tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozorida yetakchi ulush, asosan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tegishlidir. Bu holat milliy ishlab chiqarish korxonalarining texnologik modernizatsiyasi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hamda ichki bozor ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, import mahsulotlari ham bozorda muayyan ulushga ega bo'lib, ular, asosan, yuqori sifatli yoki premium segmentdagi mahsulotlar orqali raqobatni shakllantirmoqda.

Regressiya tahlili natijalari qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan aholi daromadlari o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa oziq-ovqat sanoatining mazkur segmenti iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, aholi farovonligining oshishi shirinlik va qandolat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini ham kuchaytiradi.

Mazkur natijalar boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar bilan ham muayyan darajada mos keladi. Xususan, rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega davlatlarda qandolat mahsulotlari bozori, odatda, iste'mol daromadlari oshishi bilan parallel ravishda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozori kelgusida ham barqaror o'sish salohiyatiga ega bo'lgan istiqbolli sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda qandolat mahsulotlari bozori oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanayotgan segmentlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. So'nggi yillarda mamlakatda qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortib borishi ichki iste'mol talabining kengayishi, aholi daromadlarining o'sishi hamda chakana savdo infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, qandolat mahsulotlari bozori tarkibida asosiy ulushni mahalliy ishlab chiqaruvchilar egallaydi. Bu esa milliy oziq-ovqat sanoatining rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, import mahsulotlari bilan raqobatning mavjudligi bozorni yanada takomillashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Empirik tahlil natijalari qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan aholi daromadlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu holat mazkur bozorning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishi va iste'mol darajasi bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Shuningdek, bozor rivojlanishida ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, mahsulot assortimentini kengaytirish hamda marketing strategiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zarur. Ikkinchidan, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish lozim. Uchinchidan, qandolat mahsulotlari bozorida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish hamda kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlar qandolat mahsulotlari bozorining yanada barqaror rivojlanishiga hamda mamlakat oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida." <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Oziq-ovqat sanoati va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha statistik ma'lumotlar.
3. World Bank. Global Food Industry Outlook and Consumption Trends Report.



4. FAO (Food and Agriculture Organization). Global Food Production and Confectionery Market Statistics Report.
5. Ryzhakova A.V. Mirovoy ryok konditerskikh izdeliy.
6. Lapitskaya L.V. Obshchaya ekspres-diagnostika konkurentosposobnosti konditerskoy produktsii.
7. Exploring Brand Loyalty Toward Traditional Confectioneries in an Emerging Market. Entrepreneurship and Sustainability Issues, 2020-yil.
8. Djahangirova G.Z. Sovremennoe sostoyanie proizvodstva konditerskikh izdeliy v Uzbekistane i issledovaniya perspektiv.
9. Development of the Food Products Market of Uzbekistan. American Journal of Theoretical and Applied Business, 2023-yil.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>